

## MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALAR JAMOASINI SHAKLLANTIRISH, SHAXS FAOLIYATINING ASOSIY TURLARI VA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH MAZMUNI

**G‘aniyeva Saboxon Mashrabjon qizi**

*Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumani MMTB ga  
qarashli 23-DMTT psixologi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada maktabgacha ta’limda bolalar jamoasini shakllantirish, erishish bosqichlari, shaxs faoliyatining asosiy turlaridagi faoliyatlar hamda bolalarni maktabga tayyorlash mazmuni haqida bilib olasiz.*

**Kalit so‘zlar:** *jamoat, jamoaviy guruh, o‘yin faoliyati, mehnat faoliyati, ta’lim faoliyati, maktabga tayyorgarlik*

Jamoat (lotincha “kollektivus” yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir nechta a‘zo (kishi) lardan iborat bo‘lib. Ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir.

Zamonaviy talqinda jamoat tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoat deganda bir nechta kishilar biror maqsad bilan birlashuvidan iborat tashkiliy guruh tushuniladi. (masalan: ishlab chiqarish jamoasi, o‘quv yurt jamoasi va hakoza) Ikkinchidan, jamoat deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, bolalar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

“Jamoat” tushunchasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun alohida o‘ziga hos o‘ringa egadir. Bu jamoaga esa har doimo kattalar rahbarlik qiladi. Bunda u bolalarning harakatlarini ma’lum tomonga yo‘naltiradi, boshqaradi, faoliyatda umumiy natijalarga erishishda har bir bolaning jamoadagi roli to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Bolalarning birgalikdagi faoliyati va umumiy kechinmalari bolalar jamoasining tashkil topishida asosiy shart-sharoit hisoblanadi.

Bolalar yoshligidanoq boshqalar bilan muloqotga kirishishda, bolalar jamoasi bilan muloqotda, birgalikda bo‘lishga ehtiyoj sezadi. Lekin kichik yoshdagi bolalar jamoani o‘zi tanlay olmaydi. Yashash manzili yoki ota-onasining ish manziliga yaqin maktabgacha ta’lim muassasasiga qatnay boshlaydi. Bolalar jamoasi – bu birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a‘zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo‘lgan bolalar guruhidir.

Bolalar jamoasini shakllantirish - uzoq vaqtni talab etadigan murakkab jarayondir. Avvaliga birgalikdagi faoliyat ko‘pincha o‘yin bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga birlashadi. Bu birlashish beqaror, qisqa vaqtli bo‘lib, tez buziladi. Bunday dastlabki birlashishning tashkilotchisi tarbiyachidir. Chunki u bolalarga birgalikda o‘ynashni taklif etadi. Bolalarning bittasi mashinaga yuk yuklasa, ikkinchisi tashiydi, uchinchisi yukni tushiradi; to‘rt-besh qiz uy-anjomlari bilan “Xola-xola” o‘yinini o‘ynaydi, tarbiyachi esa ularga rollarni taqsimlashda yordam beradi. Bolalarning jamoaga birlashtirishning dastlabki bosqichida tarbiyachi bu birlashishning markazida turadi: kichik yosh guruhi bolalariga hikoya, ertak aytib beradi, ashula o‘rgatadi, qiziq o‘yinchoqlarni ko‘rsatadi.

Ikkinchi bosqich - bolalar guruhining barqaror bo‘lishini ta’minlashdir. Bu davrga kelib bolalar ancha mustaqil hamda tashkilotchilik qobiliyatini egallagan bo‘ladilar. Birgalikdagi faoliyatning murakkab maqsadlari oldinga suriladi - o‘yin-mehnatga o‘rgatiladi. Bu bosqichda tarbiyachining vazifasi bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishdir. Mashg‘ulot o‘tkazayotganda uning o‘zi hammaga ko‘rinib turishi, so‘zi esa hamma uchun tushunarli bolishi lozim. U bolalarni o‘z o‘rtoqlarining ishini tahlil qilishga jalb qilish orqali ularni izlanuvchanlikka, rostgo‘ylikka o‘rgatadi. Tarbiyachi bolalarning o‘z tengdoshlariga xayrixoh bo‘lishlarini tarbiyalaydi.

Bolalarda shaxs faoliyatining asosiy turlarini ham rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Faoliyatning 3 asosiy turi mavjud: o‘yin, ta’lim, mehnat. O‘yin faoliyati bilan asosan bolalar shug‘ullanadilar. Lekin o‘yin faoliyatini kattalar va bolalar hayotida ham ko‘rish mumkin. O‘yin bola organizmi uchun tabiiy extiyoj hisoblanadi. O‘yin davomida bola psixik jihatdan rivojlanadi. “O‘yin bolalar mehnatidir”,- deb bejizga aytishmagan. Psixik jihatdan normal rivojlanayotgan bolalarning hammasi, albatta o‘yin faoliyati bilan shug‘ullanadi. O‘yin faoliyati bolalar uchun dunyoni bilish qurolidir. Shuning uchun bolalar o‘zlarining har kungi turli-tuman o‘yin faoliyatlarida tevarak-atrofidagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini bilibgina qolmay, balki kishilar o‘rtasidagi turli-tuman munosabatlarni ham o‘zlariga singdirib boradilar.

Subyektini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan faoliyat ta’lim deyiladi. U bilim, ko‘nikma va malakalardan tashkil topadi. O‘yin faoliyatining maqsadi ma’lum bilimlarni, harakatlar va amallarni o‘zlashtirishdan iboratdir. Odamning o‘z maqsadiga ko‘ra, batamom o‘rganish va o‘zlashtirishdan iborat bo‘lgan mana shunday maxsus faoliyati ta’lim faoliyati deb ataladi.

Psixologik jihatdan olganda, ta’lim faoliyati o‘z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi:

a) ma’lum bir nazariy va amaliy faoliyat turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun obyektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir ma’lumotlarni o‘zlashtirish. Bu jarayonning mahsuli bilimlardir;

b) mana shu faoliyat, ya’ni bilimlarni o‘zlashtirishni yuzaga keltiradigan usul va operatsiyalarni egallash, bu jarayonning mahsuli malaka va uquvlardan iboratdir.

Ta’lim va tarbiya faoliyati odamni ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlari uchun zarur bo‘lgan bilimlar, malaka hamda ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Bundan tashqari ta’lim va tarbiya faoliyati turli-tuman ishlarga mos ravishda o‘z xatti-harakatlarini va psixik jarayonlarini boshqara olishga o‘rgatadi. Shu tariqa odam uzoq vaqt mobaynida sistemali davom etadigan ta’limtarbiya faoliyatida o‘zini inson hayotida eng muhim faoliyat bo‘lgan mehnat faoliyatiga tayyorlaydi. Ma’lumki, odam o‘z tabiati jihatidan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmay yashay olmaydi. Agarda odam mehnat faoliyatidan to‘xtab qolsa, unday paytda o‘z hayotini ham tugatgan bo‘lur edi. Shu sababli ham mehnat faoliyati odamning yashashini ta’minlovchi eng asosiy faoliyatdir.

Maktabgacha faoliyatning asosiy maqsadi, bolalarni maktabga tayyorlashdan iborat boladi. Har bir bola ijtimoiy, ruhiy va jismoniy karakteridan kelib chiqqan holda maktabga tayyorgarlik bosqichida faol ishtirokchi sifatida gavdalanadi.

Bolalarni maktabga tayyorgarlik mazmuni. Maktabdagi majburiy ta’lim bolaga ma’lum talablarni qo‘yadi. Ma’lumki shu bola ta’lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagi bolani maktabga yozdirish mumkin. Maktabga tayyorgarlik davrida tarbiyachi va ota-nalar o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Bunda bolalar

har ikki tomon bilan bog‘lib ta’lim va tarbiya jarayonlarida faol ishtirokchi sifatida harakat qiladi. Tarbiyachi bilan birgalikda ba‘zan ota-onalar bolaning maktabga borishdan oldin o‘qish va yozishga o‘rgatishga intiladilar. Ular bolaga maktab tomonidan qo‘yilgan talablari va I-sinfda o‘qitish tempi juda baland va tez, shuning uchun oldindan olingan (o‘zlashtirilgan) malakalar bolaga har qanday topshiriqlarni bajarishga yordam beradi va natijada, ortiqcha zo‘riqishni oladi, bu esa maktabga tayyorgarlikning asosiy hamkorlikdagi bosqichi hisoblanadi.

Bolada estetik idrokni shakllantirish ham juda muhimdir. O‘zini yoshiga mos adabiy asarlarga qiziqish uyg‘otish, yon-atrofni estetik (nafis) jihatdan bezatishiga intishini rivojlantirish kerak. Bolani musiqani, adabiy so‘zni, rasmlarni chiroyini sezishni o‘rganishi kerak; ashula aytishi, rasm chizish, yasash, to‘pshmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

Bolani rivojlantirishda har qaysi usul, metod va hamkorliklardan foydalansakda, kelajak avlodni yetuk va barkamol insonlar safiga qadam qo‘yishlarida har birimizning qaysidir ma’noda o‘z burchimiz bordir. Biz tarbiyachi, ustoz yoki ota-ona bo‘laylik yosh avlod kelajagiga hech qachon befarq bo‘lmaylik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik/Sh. Sodiqova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent: «Tafakkur Bo‘stoni», 2013 - 288-b.
2. Jalilova S.X. A-74 Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017. – 496 b.
3. M.B.Tursunmatova . 5141700 «Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti» yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun «Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashning pedagogik asoslari» mavzusida bajarilgan bitiruv malaka ishi.